

Yashil

IQTISODIYOT

va

TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoirazimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pittsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyea Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatchiligi	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatli investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirovna	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiyasi	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth?	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari.....	133
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Davlat budgetining solikli daromadlari tahlili	139
Abduraimova Nigora Radjabovna	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon	143
To'la'kov Ulug'bek Toshmamatovich	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida)	151
Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich	
Состояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
Гаппарова Майрамхон Зафар кизи	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari	161
Nosir Maxmudov, Lola Azimova	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari	167
Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan	
Davlat budjeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
Sherxon Tuychiyev	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
Ergashev Jahongir Baxodirovich	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari	180
Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich	
Budjet tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
Azizova Zilola Lochin qizi	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahallilashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari	191
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi	
Анализ прибыли агропромышленности	204
Гафурова Азизахон Фатиховна	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach	209
Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloevna	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries	213
Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruv faoliyatining roli	216
Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari	230
Mirzayev Kobii Nosirjonovich	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
Innovation iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
Zarina Ashurova	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Суть и значимость инновационных технологий в региональном управлении	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	



IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISHDA SINERGETIK TA'SIRNING NAZARIY ASOSLARI

Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi

O'ZMU talabasi

Ilmiy rahbar:

Normurodov Xusan

O'ZMU katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyot va uni raqamlashtirishda sinergiya ta'sirining ahamiyati tadqiq qilingan. Iqtisodiyotning tarkibiy qismlarini raqamlashtirish samarasi o'rganilgan. Sinergiya va sinergiya ta'sirini yuzaga chiqaruvchi o'zaro bog'liq aloqa turlari aniqlangan. Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishdagi muammolar natijasida yuzaga keladigan sinergetik ta'sirlarni aniqlash uchun "sinergetik to'plam samarasi" metodologiyasidan foydalanilgan. Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishda tizimdagi tarkibiy birliklar va ta'sir omillarining o'zaro sinergetik ta'siri alohida va kompleks tahlil metodologiyasi asosida baholangan.

Kalit so'zlar: sinergiya, iqtisodiyotning tarkibiy qismlari, to'plam samarasi metodologiyasi, sinergetik ta'sir, sinergetik bog'liqlik, qo'shimcha samara.

Abstract: The article reveals the importance of synergy effects in the economy and its digitization. The effect of the digitalization of the components of the economy has been studied. Synergy and the types of interdependent communication that create the feeling of synergy have been identified. The collective efficiency methodology was used to identify synergistic effects resulting from problems in the digitization of economic sectors. The synergistic effect of problems arising in the digitization of economic sectors of the Republic of Uzbekistan was evaluated based on the collective effect methodology.

Key words: synergy, components of the economy, methodology of collective effect, synergistic effect, synergistic dependence, additional effect.

Аннотация: В статье раскрывается важность синергетических эффектов в экономике и её цифровизации. Изучен эффект цифровизации экономических составляющих. Определены синергия и виды взаимозависимого общения, создающие ощущение синергии. Методология эффекта синергетического набора была использована для выявления синергетических эффектов, возникающих в результате проблем цифровизации секторов экономики. Синергетический эффект проблем, возникающих при цифровизации отраслей экономики Республики Узбекистан, оценён на основе методологии синергетического эффекта.

Ключевые слова: синергия, компоненты экономики, методология коллективного эффекта, синергетический эффект, синергетическая зависимость, дополнительный эффект.

KIRISH

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni butun dunyo bo'ylab iqtisodiyotni yangidan shakllanishiga yordam beradi. Buning natijasida iqtisodiyot takomillashadi yoki tubdan yangicha tartibda rivojlanadi. Bu biznesning yangi turlari paydo bo'lishiga va iqtisodiyot tarmoq tuzilmasining samarali tarkib topishiga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning bunday tarkib topishi uni yanada samarali infratuzilmalar bilan ta'minlashni taqozo qiladi. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rnini katta. Shu jihatdan, iqtisodiyotni raqamlashtirish barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish barcha jarayonlarga ta'sir qiluvchi komponent omil sifatida amal qiladi. Raqamlashtirish bilan bog'liq vujudga keladigan qo'shimcha samara boshqa omillar bilan yuzaga keladigan qo'shimcha samaraga nisbatan katta ulushga ega. Raqamlashtirish natijasida barcha sohalarda intensiv xo'jalik yuritish, turli bozorlarda, jumladan, mehnat bozorlarida ham o'zgarishlar yuz bermoqda va iqtisodiy samaradorlik oshmoqda.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning ahamiyati shundaki, bir tarmoqning rivojlanishidan olinadigan samarani ikkinchi tarmoq bilan integratsiyalashuvi natijasida yanada ko'proq samaraga erishish mumkin.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoniga binoan, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va



sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, dasturiy mahsulotlar va texnologiyalarning mahalliy bozorini rivojlantirish, sohaga malakali kadrlarni jalb etish maqsadida 220 dan ortiq loyihalar amalga oshirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Elektron hukumat va yagona interaktiv xizmatlar portalida 178 ta xizmat yo'lga qo'yildi, bu xizmatlar aholining xarajatlari bilan birga vaqtini ham tejashga xizmat qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslari talab etiladi. Shunga qaramay, raqamli texnologiyalar mahsulotlar va xizmatlar sifatini, samaradorlikni oshiradi hamda ortiqcha xarajatlarni, ayniqsa, korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot deganda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirish tushuniladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi insonga kerakli xizmatlardan tezroq foydalanish, internet orqali zarur mahsulot va xizmatlarni bir zumda xarid qilish orqali vaqt va mablag'ni tejash imkoniyatini beradi. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari orasida ishlab chiqarishda mehnat samaradorligining oshishi, kompaniyalarning raqobatbardoshligi o'sishi, ishlab chiqarish xarajatlarning kamayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va zamonaviy kasblarning paydo bo'lishi kabi omillar mavjud. Bularning barchasi aholining turmush darajasini yaxshilaydi, kambag'allikni kamaytiradi va iqtisodiyotning o'sishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni butun dunyo bo'ylab iqtisodiyotni yangidan shakllanishiga yordam beradi. Buning natijasida iqtisodiyot takomillashadi yoki tubdan yangicha tartibda rivojlanadi. Bu biznesning yangi turlari paydo bo'lishiga va iqtisodiyot tarmoq tuzilmasining samarali tarkib topishiga xizmat qiladi. Iqtisodiyotning bunday tarkib topishi uni yanada samarali infratuzilmalar bilan ta'minlashni taqozo qiladi. Ayniqsa, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni katta. Shu jihatdan, iqtisodiyotni raqamlashtirish barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga ta'sir qiladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish barcha jarayonlarga ta'sir qiluvchi komponent omil sifatida amal qiladi. Raqamlashtirish bilan bog'liq vujudga keladigan qo'shimcha samara boshqa omillar bilan yuzaga keladigan qo'shimcha samaraga nisbatan katta ulushga ega. Raqamlashtirish natijasida barcha sohalarda intensiv xo'jalik yuritish, turli bozorlarda, jumladan, mehnat bozorlarida ham o'zgarishlar yuz bermoqda va iqtisodiy samaradorlik oshmoqda.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning ahamiyati shundaki, bir tarmoqning rivojlanishidan olinadigan samarani ikkinchi tarmoq bilan integratsiyalashuvi natijasida yanada ko'proq samaraga erishish mumkin.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoniga binoan, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, barcha tarmoqlar va sohalarda, eng avvalo, davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va qishloq xo'jaligida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, dasturiy mahsulotlar va texnologiyalarning mahalliy bozorini rivojlantirish, sohaga malakali kadrlarni jalb etish maqsadida 220 dan ortiq loyihalar amalga oshirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida Elektron hukumat va yagona interaktiv xizmatlar portalida 178 ta xizmat yo'lga qo'yildi, bu xizmatlar aholining xarajatlari bilan birga vaqtini ham tejashga xizmat qilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslari talab etiladi. Shunga qaramay, raqamli texnologiyalar mahsulotlar va xizmatlar sifatini, samaradorlikni oshiradi hamda ortiqcha xarajatlarni, ayniqsa, korrupsiyani kamaytirishga yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyot deganda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarni raqamli texnologiyalar yordamida amalga oshirish tushuniladi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi insonga kerakli xizmatlardan tezroq foydalanish, internet orqali zarur mahsulot va xizmatlarni bir zumda xarid qilish orqali vaqt va mablag'ni tejash imkoniyatini beradi. Raqamli iqtisodiyotning afzalliklari orasida ishlab chiqarishda mehnat samaradorligining oshishi, kompaniyalarning raqobatbardoshligi o'sishi, ishlab chiqarish xarajatlarning kamayishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va zamonaviy kasblarning paydo bo'lishi kabi omillar mavjud. Bularning barchasi aholining turmush darajasini yaxshilaydi, kambag'allikni kamaytiradi va iqtisodiyotning o'sishiga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda sinergetik to'plam samarasi qo'llanildi. Iqtisodiy statistik ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Raqamli iqtisodiyot faoliyati ikki tomonlama ta'sir mexanizmi asosida o'rganildi va ma'lumotlar bazasi yig'ildi. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish, iqtisodiy tahlil va qiyoslash, tizimli hamda mantiqiy yondashuv kabi usullardan samarali foydalanildi.



Sinergiya – yunoncha synergia, ya’ni sheriklik, yordam ma’nosini anglatadi. Sinergetika – omillarning birgalikdagi ta’siri, bu ta’sir har bir alohida komponentning ta’siridan va ularning oddiy yig’indisidan sezilarli darajada yuqori bo’lishi bilan tavsiflanadi. Bu o’zaro bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatuvchi komponentlar, turli omillar yoki tarkibiy birliklardan tashkil topadi. Ular o’zaro turdosh va turdosh bo’lmagan omillarga bo’linadi (1-jadval).

1-jadval. Sinergetik samara komponentlari tasnifi¹.

Sinergetik omillar tavsifi	Sinergetik xususiyatlar			
Bevosita ta’sir samarasiga ega omillar	birlamchi	Qisqa muddatli samara omillari	Omil ta’sirida boshqa omil yoki komponent yoki tarkibiy birlikning o’zgarishi	Faol (Ta’sir etuvchi, o’zgartiruvchi)
Bilvosita ta’sir samarasiga ega omillar	Ikki lamchi	Uzoq muddatli samara omillari	Ta’sir samarasining ta’sir samarasiga ta’siri	Nofaol (ta’sirlanuvchi, o’zgaruvchi)
Ekzogen	Tashqi ta’sir	O’zgarmas	Ta’sirchan emas	Moslashiladi
Endogen	Ichki ta’sir	o’zgaruvchan	Ta’sirchan	o’zgartiriladi
Tarmoq yoki sohaga tegishli omillar	Asos tarkib	Umumtarmoq Xususiy Maxsus tarmoqlar omillari	Soha omillari	Tarmoq omillari
Tarmoqqa tegishli bo’lmagan omillar	Asos bo’lmagan tarkib	Bevosita aloqador bo’lmagan	Umumiqtisodiy	To’ldiruvchi tarkib
Kombinatsion sinergetik omillar	variatsion	Tasodifiy, bevosita va bilvosita ta’sir va samaralar	Cheklanmagan variantdagi samara hosil qiluvchi	Kutilmagan hosilali
Konfiguratsion sinergetik omillar	maqsadli	Uyg’un, ma’lum moslikdagi konfiguratsion ta’sirlar va samaralar	Maqsadli samara hosil qiluvchi	Kutilgan istiqbolli
Multiplikativ omillar	Paydo qiluvchi	Rivojlantiruvchi	ko’paytiruvchi	oshiruvchi
Transformatsion omillar	Yangilanuvchi	Rivojlanuvchi	pasayuvchi	almashinuvchi

Iqtisodiyotda turli omillar bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatadi va natijada turli samaralar shakllanadi. Ana shunday maqsadli samaralarga erishishda iqtisodiyotni raqamlashtirish omilini asosiy komponent sifatida asoslaymiz. Chunki iqtisodiy o’sishga ta’sir qiluvchi omillar orasida hozirgi kunda eng zamonaviy va dolzarb omil sifatida raqamlashtirish jarayonini ko’rish mumkin. Raqamlashtirish 1-jadvalda keltirilgan barcha ta’sir birliklariga bevosita va bilvosita ta’sir ko’rsatadi, qolaversa, unda sinergetik ta’sirning ko’pgina xususiyatlari mujassamdir.

Sinergetik ta’sir birliklari ikki omilli, ko’p omilli va konfiguratsion matritsali bo’ladi.

¹ Muallif ishlanmasi.

2-jadval. Sinergetik ta'sir birliklari matritsasi².

Ikki omilli						Ko'p omilli						Kombinatsion					
	A	B	V	G	V		A	B	V	G	V		A	B	G		
1						1						Y1	1				Y1
2						2						Y2					Y2
3						3						Y3	3				
4						4						Y4	4				Y
5						5						Y5					
6						6						Y6	6				Y6
							X1	X1	X1	X1	X1			X1		X1	

Yuqoridagi matritsada ikki omilli sinergetik ta'sir birliklari omillari ustun omillarining satr omillariga yoki aksincha, satr omillarining ustun omillariga ta'siri bo'yicha amal qiladi. Bu yerda ustun ta'sir omillari yoki satr ta'sir omillari ta'sir qiluvchi komponent yoki ta'sirlanuvchi komponent sifatida qatnashadi. Ya'ni, 1-, 2- yoki n-chi ustundagi ta'sir birligining A, B yoki n-chi satrdagi ta'sir birligi bilan ta'sirlanishi tushuniladi. Bunda holat ko'pincha abstrakt ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday omillar ta'sirida vujudga keladigan natija, ya'ni samara ko'pincha ko'p omilli ta'sir birliklari sifatida yuzaga keladi. Bu jarayonlar ko'pincha kombinatsion xarakterga ega hisoblanadi. Bu omillar juda murakkab sxemaga ega bo'lib, ularning samaradorligini baholashda tadqiqotchilar, asosan, makroiqtisodiy sintez usulidan foydalanadilar. Biz uchun konfiguratsion ta'sir omilli sinergetik samara muhimdir, chunki u maqsadli va natijasi to'liq bo'lmasa-da, kafolatlangan bo'ladi. Tadqiqotimizda raqamlashtirish eng katta ta'sir qiluvchi omil birligi sifatida uyg'un va mos sinergetik ta'sir birliklari qatorida taklif etiladi.

Raqamli iqtisodiyot hozirgi kunda mavjud sohalarning yarmidan ko'pida o'zgarishlar olib kelishi haqida prognozlar berilmoqda. Jahon banki ekspertlarining fikricha, internetdan foydalanuvchi aholi sonining 10 foizga ortishi YAIM hajmini har yili o'rtacha 0,4–1,4 foizga oshishiga imkon yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot – yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish hamda ularni kundalik hayotga joriy etish demakdir. Bu tizimning asosiy belgilariga yuqori darajada avtomatlashtirilganlik, elektron hujjat almashinuvi, ma'lumotlarning elektron bazasi, buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi kiradi. Bu tizimning qulayliklariga keladigan bo'lsak, to'lovlar uchun xarajatlar kamayadi, tovarlar va xizmatlar haqida tez va ko'proq ma'lumot olish imkoniyati oshadi, raqamli dunyodagi tovar va xizmatlarning jahon bozoriga chiqish imkoniyati kengayadi, iste'molchilarning fikrlarini o'rganib, bozorga moslashish osonlashadi.

Sinergetik ta'sir – bu turli tizim yoki jarayonlarning birgalikdagi ta'siri natijasida yuzaga keladigan qo'shimcha samaradorlik va yaxshilanish holatidir. Iqtisodiyotda esa sinergetik ta'sir deganda texnologiyalar va innovatsiyalarni birlashtirish orqali yangi imkoniyatlarni yaratish tushuniladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ishlab chiqarishda samaradorlikka, elektron tijorat va onlayn xizmatlarning vujudga kelishiga, moliyaviy sektorda kriptovalyutalar va raqamli to'lov tizimlari orqali tranzaksiyalarni tez va xavfsiz amalga oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishlab chiqarishni raqamli transformatsiyasi tadqiqotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalardan va boshqaruv usullaridan foydalanib kelayotgan korxonalar o'z raqobatchilariga qaraganda 26 foizga ko'proq foyda olayotganligi aniqlangan. Faqatgina raqamli texnologiyalardan foydalanib kelayotgan korxonalarda samaradorlik ulushi 15 foiz bo'lsa, faqat boshqaruv usullarini modernizatsiya qilgan korxonalarda esa samaradorlik 9 foiz ekani ko'rsatilgan.


Korxonalar ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish uchun bulutli xizmatlar, katta ma'lumotlar, buyumlar interneti (IoT), shuningdek, sun'iy intellekti asosiy texnologik jarayonlar va ulanishlarni boshqarish tizimlariga kiritadilar. 5G davrining boshlanishi butun dunyo bo'ylab ilm-fan va texnologiyalarni takomillashtirish va yangilanish sur'atini jadallashtiradi, odamlar ishi va hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatadi, iqtisodiy o'sishning yangi nuqtalarini taqdim etadi hamda insoniyatni aqlli jamiyatga o'tish loyihalarini aniqlaydi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirishning sinergetik ta'siri keng ko'lami bo'lib, turli sohalarda sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Bu jarayon ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bozor va iste'molchilar bilan aloqalarni yaxshilash, to'lov tizimlari va moliyaviy xizmatlarni modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish, davlat boshqaruvi va jamoat xizmatlarini optimallashtirish, investitsiyalarni rag'batlantirish va ta'lim tizimini rivojlantirish kabi yo'nalishlarda o'z aksini topadi.

2 Muallif ishlanmasi.



Raqamli jamiyat – bu jamiyatda raqamlashtirish imkoniyatlaridan foydalanish jarayonini ifodalaydi. Raqamli jamiyat obyektiv jarayon ekanligini hisobga olsak, istiqbolda bu tartib global raqamli dunyoni hosil qiladi. Har bir tarkibiy birliklar ta'sir omillari va sinergetik birliklar sifatida amal qiladi. Raqamli jamiyatning sinergetik ta'sir birliklarining klassik tuzilishi quyidagi rasmda aks ettirilgan.



1-rasm. Raqamli jamiyatning sinergetik ta'sir birliklari³.

Raqamli jamiyat iqtisodiyotni raqamli texnologiyalar bilan ta'minlash jarayonida vujudga kelishini hisobga olsak, asosiy negiz tarkibiy birlik sifatida raqamli ta'lim iqtisodiyotini shakllantirishdan boshlanishi kerak. Ikkinchi bosqichda raqamli infratuzilmani shakllantirish talab etiladi. Bu ikki quyi tuzilma raqamli iqtisodiyotni shakllantiradi, bu esa raqamli jamiyatni boshqarishda raqamli tizimni taqozo qiladi. Demak, raqamli jamiyatning asosini yaratish orqali raqamli texnologik jamiyat vujudga keladi.

Raqamli iqtisodiyotning ishlab chiqarish sanoatiga kapital omillarini kiritishdagi multiplikativ ta'siri, birinchi navbatda, korxonalar tomonidan ilmiy-tadqiqot investitsiyalarining ko'payishi hamda an'anaviy mashina va uskunalarining ilg'or mashina va uskunalar bilan almashtirilishida namoyon bo'ladi. Bir tomondan, raqamli iqtisodiyot ishchilarning inson kapitali darajasini va ishlab chiqarish sanoatida mehnat unumdorligini oshirishga hissa qo'shadi. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi va ishchilarning sifatining oshishi natijasida ishlab chiqarish korxonalari texnologik tadqiqotlar va ishlanmalarga ko'proq sarmoya kiritadi, bu nafaqat yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni qondiradi, balki kapital tarkibini optimallashtiradi. Kapital unumdorligini oshirish, ishlab chiqarish korxonalarining texnologik taraqqiyotini rag'batlantirish va sanoatni rivojlantirishga ko'maklashadi.

Raqamli iqtisodiyotda kompaniyalarning qo'shimcha kapital qo'yilmalari endi an'anaviy sanoat uskunalarini xarid qilish uchun emas, balki sanoat robotlarini xarid qilish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yo'naltiriladi. Bundan tashqari, sanoat robotlarining keng qo'llanilishi ishlab chiqarish korxonalarida yuqori malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirib, ishchilarni raqamli iqtisodiyot davrida ishlab chiqarishni rivojlantirish ehtiyojlariga moslashishga undaydi. Xitoy iqtisodiyoti yuqori tezlikdagi o'sishdan yuqori sifatli rivojlanishga o'tgandan beri raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o'sish va texnologik taraqqiyotning asosiy omili sifatida paydo bo'ldi. So'nggi yillarda Xitoyning ishlab chiqarish korxonalari sanoat raqamli transformatsiyasini jadallashtirib, katta ma'lumotlar, blokcheyn va boshqa axborot texnologiyalarini faol qo'llashdi. Natijada, raqamli iqtisodiyot korxonalarni yuqori sifatga erishish uchun rag'batlantirishning muhim usuliga aylandi.

Chenerining sanoatlashtirish bosqichi nazariyasiga ko'ra, sanoatlashtirishdan keyingi davrda ishlab chiqarish strukturasi kapitalni ko'p talab qiladigan texnologiyaga o'tadi va texnologik taraqqiyot ishlab chiqarish strukturasi yangilashning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Axborot texnologiyalarining yangi avlodining bosqichma-bosqich yetuklashishi va uning ta'minot tomonidagi dastur markaziga o'tishi bilan ishlab chiqarish sanoati raqamli iqtisodiyot uchun innovatsiyalarni boshqarish, o'zgartirish va yangilashda asosiy maydon sifatida namoyon bo'ldi. Raqamli texnologiya ishlab chiqarish tuzilmalarini texnologik yangilash imkonini berib, resurslarni taqsimlash samaradorligi va mahsuldorlikni oshiradi. Axborot texnologiyalarining yangi avlodi mahsulot haqida ma'lumot to'plash, bilim almashish va mahsulotni ishlab chiqish hamda loyihalash faoliyati uchun integratsiyani ta'minlaydi. Korxonalarga "innovatsiyalarni rag'batlantirish effekti" orqali texnologik innovatsion imkoniyatlar va mehnat unumdorligini yaxshilash uchun ochiq innovatsion paradigmani ishlab chiqishda yordam beradi. Korxonalar, shuningdek, mijozlarning xilma-xil va moslashtirilgan ehtiyojlarini aniqroq tushunishlari



mumkin, bu esa talab va taklifni aniq moslashtirish hamda mijozlar talabiga real vaqt rejimida javob berish orqali ishlab chiqarish sanoatining umumiy omillarini yaxshilash uchun kuchli turtki beradi (2-rasmda ko'rsatilgan).



2-rasm. Raqamli iqtisodiyotning ishlab chiqarish sanoatiga ta'sir mexanizmi.

So'nggi yillarda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar imzolandi.

Bugun raqamli texnologiyalar barcha sohalarga va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Mamlakatimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish eng muhim vazifalardan biriga aylangan.

Raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo'llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o'rin egallagani tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilandi. Mazkur vazifalar ijrosi doirasida mamlakatimizda yangi elektron hujjat almashinuvi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to'lovlar rivojlantirilmoqda, elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Raqamli transformatsiyani amalga oshirish bo'yicha so'nggi yillarda bajarilgan ishlar qatoriga aholi va tadbirkorlik subyektlarining davlat organlari bilan kontaktsiz aloqa shakllarini yanada rivojlantirish maqsadida Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining yangi versiyasi va Bosh vazirning tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish virtual qabulxonasi – "business.gov.uz" portalining ishga tushirilishi kiradi [7].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot ulushi internet tarmog'idan foydalanish darajasi oshishi bilan ortadi, bundan tashqari, elektron hukumat tizimining samaradorligi ham oshadi. Yurtimizda internet foydalanuvchilari soni jami aholiga nisbatan 2018-yilda 46 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yilda bu ko'rsatkich 60 foizdan yuqorini tashkil etdi.

Raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda YAIM hajmi ham, YAIMning aholi soniga nisbatan ulushi ham yuqori ekanini ko'rishimiz mumkin. Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimizda mazkur masalaga e'tibor qaratish yagona maqsadga qaratilgan: aholining yashash sharoitini yaxshilash, aholining real daromadini oshirish, tadbirkorlikni va mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishdir.

"Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og'ir illat – korrupsiya balosini yo'qotishda ham samarali vositadir." Prezidentimizning ushbu so'zlari raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni ta'minlashi, balki korrupsiya va qora iqtisodiyotga qarshi kurashda ham samarali vosita ekanini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Economic Forum, Global Risks 2014, Ninth Edition, Geneva, Switzerland, 2014.
2. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish istiqbollari.
3. Tuychieva O.N. (2022). Ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2(11), 180-189.
4. Chenery H.B. (1980). Interactions between industrialization and exports. American Economic Review, 70, 281–287.
5. Huang Q., Yu Y., Zhang S.L. (2019). Internet development and manufacturing productivity improvement: Internal mechanism and Chinese experience. China Industrial Economics, 8, 5–23.
6. What does the growth of the digital economy mean for your business?.
7. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish.
8. The United Nations Commission on Science and Technology for Development, 18th Session, 4–8 May 2015, Geneva. Item 3: Science and technology for development, 6 May 2015. Contribution by Institute for Tele-Information, Columbia University: The Transformative Economic Impact of Digital Technology by Dr. Raúl Katz, Director of Business Strategy Research.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

